

O'ZBEKISTON SSRDA YER-SUV ISLOHOTI MOHIYATI

Islomxon Jaxongirov Faxriddin o'g'li

Farg'onan davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston SSRda yer-suv islohotining mohiyati o'rganilib, uning barqaror rivojlanishga ko'maklashishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Islohotning yerlarni qayta taqsimlash, sug'orishni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi asosiy jihatlarini o'rganib chiqib, biz uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat imkoniyatlarini ochib beramiz.

Kalit so'zlar: yer-suv islohoti, O'zbekiston SSR, barqarorlik, hosildorlik, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, resurslarni taqsimlash, yer egaligi, irrigatsiya tizimlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется сущность земельно-водной реформы в Узбекской ССР (Советской Социалистической Республике) и освещается ее значение для содействия устойчивому развитию. Изучая ключевые аспекты реформы, такие как перераспределение земель, управление ирригацией и охрана окружающей среды, мы раскрываем возможности долгосрочного социально-экономического роста и экологического баланса.

Ключевые слова: земельно-водная реформа, Узбекская ССР, устойчивость, урожайность, сельское хозяйство, водное хозяйство, распределение ресурсов, землевладение, ирригационные системы.

ABSTRACT

This article explores the nature of land-water reform in the Uzbek SSR (Soviet Socialist Republic) and highlights its importance in promoting sustainable development. Having studied the main aspects of the reform, such as land redistribution, irrigation management and environmental protection, we will reveal the possibilities of long-term socio-economic growth and ecological balance.

Keywords: land-water reform, Uzbek SSR, stability, productivity, agriculture, water management, resource allocation, land ownership, irrigation systems.

Bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekiston oldida, shiddat bilan o'zgarayotgan davrning zamonga mos ravishda, tarix fani oldida ham, har tomonlama mustaqil fikriga ega, yuksak bilimli va vatanparvar avlodni ulg'aytirishni dolzarb masala sifatida

qo‘ymoqda. Binobarin o‘z tarixini, milliy o‘zligini qadim an’ana va urfodatlarini bilmagan, uni anglay olmagan xalq tezda o‘zining ozodligini, hamda yuz yillar davomida ota-bobolarining mashaqqatli mehnati, chekkan zahmatlari va to‘kkon qonlari evaziga qurilgan milliy davlatchiligini va mustaqilligini yo‘qotadi. Xalqimiz necha yuz yillar davomida turli tala to‘plar va bosqinlar sharoitda ham o‘zligini saqlab qoldi. Binobarin, “O‘zbek xalqining tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz.¹

Yer-suv islohoti dunyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va hosildorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Boy qishloq xo‘jaligi merosi bilan mashhur bo‘lgan O‘zbekiston SSR resurslarni taqsimlash, samarasiz sug‘orish tizimlari va yerga egalik qilish muammolarini hal qilish uchun yer-suv tizimini kompleks isloh qilish zarurligini e’tirof etdi. Ushbu maqolada O‘zbekiston SSRda yer-suv islohotining mohiyati o‘rganilib, barqaror amaliyot, suv xo‘jaligini takomillashtirish va yer resurslarini teng taqsimlash muhimligi ta’kidlangan.

Ushbu maqola O‘zbekiston SSRda yer-suv islohoti borasidagi sa’y-harakatlar haqida tushuncha to‘plash uchun mavjud adabiyotlar, jumladan, ilmiy maqolalar, ma’ruzalar va hukumat nashrlari sharhiga asoslangan.

Umuman olganda XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarida yaratilgan asarlarda O‘zbekiston SSRda, xususan O‘rta Osiyoda amalga oshirilgan yer suv islohoti sotsalizmning kapitalizm ustidan g‘alabasi va jahon proletarning Kommunizm sari muhim qadami sifatida baholandi. Vaholanki aynan 30-yillarda SSSRda totalitar rejim qaror topib tobora kuchayib borayotgan edi. O‘sha davrda sovet davlatida tarix fanining muayyan voqelikka asoslanishi barham topdirildi. Tarixiy tadqiqotlarda sinfiy yondashuv kuchayib, leninchha dunyoqarashga asoslangan metadalogiyaga amal qilindi. XX asrning 30-yilarida sovet davlatida markisistik mafkura hukmronligi uzilkesil qaror topdirildi. Aynan ushbu omillar tufayli bu davrdagi asarlar va tadqiqotlarda tadqiqotching holisligi va o‘sha davrdagi voqelikni to‘g‘ri holda yoritganligi bir muncha shubhaga qo‘yilishi kerak.

Sovet hukumatining agrar siyosati O‘zbekiston qishloqlarida yuz yillardan beri shakllanib kelgan yerga egalik qilish strukturasini butunlay buzib, mulkchilikning mutlaqo yangi va jahon tarixida misli ko‘rilmagan shaklini tadbiq qildi. Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi (1925- 1929 yillar) tarixshunosligiga doir ilmiy tadqiqotlar va asarlar ilmiy-nazariy jihatdan ikki (sovet davri va mustaqillik) davriga bo‘linadi. Bular sovet davrida (1925-1991- yillar) yaratilgan kitoblar va ilmiy tadqiqotlar, ikkinchi davri Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlar.

¹ Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi T –: «ЎЗБЕКИСТОН», 2016. 5-bet.

Sovet davrida yaratilgan ilmiy ishlarning o‘zini uch bosqichga yoki ikki bosqichda tadqiq etish bo‘yicha qarashlar mavjud. XX asrning 20-yillari 2-yarmida Sovet davlatining O‘zbekiston SSRda olib borgan yersuv islohoti va boshqa ijtimoiy siyosiy tadbirlari haqida siyosati haqida bir qator ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Bu asarlarda yer suv islohoti haqida stastistik ma’lumotlar va raqamlar yetarli asosida e’lon qilingan. Jumladan Средняя Азия: экономико-географический очерк Кара-Калпакстана, Киргизстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана” asarida umumittifoq nuqtai nazaridan dastlabki ma’lumotlar beriladi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi ilmiy adabiyotlarda sovet hokimyatining paydo bo‘lishi, sovetlarning O‘rtacha Osiyodagi agrar siyosatining ijtimoiy xarakteri va oqibatlari nisbatan kengroq ochib berishga harakat qilingan¹.

60-70-yillarda qilingan tadqiqotlarda sovet davlatining yer-suv islohoti, qishloqdagi o‘zgarishlar, xususan, qishloqda mulkchilikning bekor qilinishi strukturasini rivojlantirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalari tadqiq qilindi. 60-70-yillardagi muammo tarixshunosligi G.Rizaev, L.Z.Kunakova, I.Alimov, A.Y. Ibragimov va boshqalar tomonida tahlil qilindi². Farg‘ona vodiysi qishloqlarining 1920-yillarning 2-yarmidagi iqtisodiy hayotining ayrim jihatlari bilan mustaqillikdan so‘ng, R.R.Shamsuddinov tomonidan ancha batafsil o‘rganildi. O‘zbekistonda ommaviy kollektivlashtirish arafasidagi iqtisodiy-agrar vaziyat, 20-yillarda O‘zbekistonda yer qonunchilik faoliyati M.S.Vasikova tomonidan atroficha ko‘rib chiqilgan. 20-yillar voqealarining tarixshunoslik jihatlari va shaxslarning siyosiy portretlari R.Y.Rajapaov asarlarida ochib berilgan. O‘zbekiston tarixining 20-yillaridagi murakkab va ziddiyatli davr omillarini ko‘p qirrali tahlil qilish asosida yer-suv islohotini o‘rganish bosqichining tarixiy tajribasi Kommunistik partiyaning tarix fani oldidagi ulkan senzurasiga qaramay 1960 va 1970-yillarida ancha takomillashdi.

O‘zbekistondagi yer-suv islohoti tarixshunosligiga doir ilmiy adabiyotlarning tahlil qilish natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, o‘tgan o‘n yilliklar davomida yer-suv islohoti muammolarini o‘rganish uchun ma’lum ilmiy baza yaratilgan, katta miqdordagi faktik materiallar to‘plangan va umumlashtirilgan, tadqiqot amaliyoti o‘talgan. Mustaqillik yillarida tarixiy tadqiqot syujetlarning bir qator muhim muammolarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida tilga olingan ilmiy adabiyotlar va

¹ Ризев Г. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1955 гг.). Ташкент, 1967: Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Узбекистане. 1925-1929 гг. Фрунзе, 1067 Алимов И. Узбекское земледелие на пути к социализму. Ташкент, 1970, Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной колхозизации (1925-1929 гг.). Ташкент, 1969 г

² Шамситдинов, Равшан Рустамбекович. Советы в проведении земельно-водной реформы в Ферганской области. 1925-1927 гг. : автореферат дис.... кандидата исторических наук : 07.00.02 / Российский ун-т дружбы народов. - Москва, 1993. - 19 с

undagi kamchiliklar mualliflarning mafkuraviy noaniqligini tufayli kelib chiqqan. Tadqiqotlarni ilmiy asosda ohib berishga urinish partiya senzurasi tomonidan elakdan o‘tkazilgan yoki shunchaki chiqarib tashlangan. Oqibatda tadqiqot jarayonlarning rivojlanishi faqat Yer-suv islohotining birinchi yillaridagi asarlarda namoyon bo‘ldi. Tarixiy masalalarining eng muhim qismlarda tarixchilar yoki tadqiqotlarni “tugatishardi” yoki boshqa davrga “sakrab o‘tishardi”. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fanida amalga oshirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarda kommunistik mafkuraning asl mohiyati isbotlab berildi. Sho‘rolar tomonidan oshirilgan “inqilobiy o‘zgarishlar” tahlil qilinib, sovet totalitar rejimining asl qiyofasi ko‘rsatildi.

O‘zbekiston SSRda yer-suv islohoti tashabbuslari bir qancha muhim yo‘nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishganiga guvoh bo‘ldi. Birinchidan, suvni tejash, tuproq salomatligi va kimyoviy moddalarining kamayishini ta’kidlab, barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotiga o‘tish yuz berdi. Ikkinchidan, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suvdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish kabi suvni boshqarish texnikasini takomillashtirish hosildorlikni oshirishga va suv isrofgarchilagini kamaytirishga olib keldi. Uchinchidan, yerga egalik qilish tizimidagi islohotlar fermerlarga erdan xavfsiz va adolatli foydalanish imkoniyatini ta’minalash, investitsiyalarni rag‘batlantirish va qishloq xo‘jaligi faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirishni maqsad qilgan¹.

O‘zbekiston SSRda yer-suv islohoti ishlari muayyan qiyinchiliklar va cheklowlarga duch keldi. Barqaror amaliyotlar rag‘batlantirilayotgan bo‘lsa-da, keng qabul qilinishini ta’minalash uchun doimiy ta’lim va xabardorlik kampaniyalariga ehtiyoj bor. Bundan tashqari, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish katta sarmoyalar va texnik tajribani talab qiladi, bu esa hukumat va xalqaro sheriklar o‘rtasida mustahkam hamkorlikni talab qiladi. Bundan tashqari, erga egalik qilish islohotlari ko‘pincha kredit va zamonaviy dehqonchilik texnologiyalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladigan kichik fermerlarning ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak.

XULOSA

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fanida amalga oshirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarda kommunistik mafkuraning asl mohiyati isbotlab berildi. Sho‘rolar tomonidan oshirilgan “inqilobiy o‘zgarishlar” tahlil qilinib, sovet totalitar rejimining asl qiyofasi ko‘rsatildi.

¹ Хайдаров Муродилла Маҳмуталиевич. Ўзбекистонда Совет давлати бошқарув тизимининг шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917-1941 йй) Ўзбекистон тарихи Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент – 22018. 8-бет

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shmamajlisidagi nutqi T –: «ЎЗБЕКИСТОН», 2016. 5-bet
2. Dr Talal Atriss. Globalization and moral values. The seventh international conference on "The Impact of Globalization on Development and Health Care Services in Islamic Countries". 12-15 October 2002, Cairo – Egypt
3. Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning qulqoqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari.T.2001
4. Ahmedov Dilshodbek Rustambekovich. Sovet hokimiyatining Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligida mulkdorlar qatlarni cheklash siyosati (1917-1929 yillar).
5. Ҳайдаров Муродилла Маҳмуталиевич. Ўзбекистонда Совет давлати бошқарув тизимининг шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917-1941 йй) Ўзбекистон тарихи Тарих фанлари доктори диссертацияси автoreferati. Тошкент – 22018. 8-бет
6. Грузинская Виктория Сергеевна Дисциплинарная история историографии в СССР: вторая половина 1940-х – середина 1980-х гг. Специальность 07.00.09 – Историография, источниковедение и методы исторического исследования Автoreferat диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук Омск – 2020. стр. 6
7. Большая российская энциклопедия гл. ред. О. Ю. Шмидт. - Москва : Советская энциклопедия, 1926-1947. стр.377.
8. Ризвев Г. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1955 гг.). Ташкент, 1967: Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Узбекистане. 1925-1929 гг. Фрунзе, 1067 Алимов И. Узбекское землевладение на пути к социализму. Ташкент, 1970, Аграрные преобразования в Узбекистана накануне сплошной коллективизации (1925-1929 гг.). Ташкент, 1969 г
9. Шамситдинов, Равшан Рустамбекович. Советы в проведении земельно-водной реформы в Ферганской области. 1925-1927 гг. : автoreferat дис.... кандидата исторических наук : 07.00.02 / Российский ун-т дружбы народов. - Москва, 1993. - 19 с